




BESH YILLIK STRATEGIYA USTUVOR MAQSADLAR YO'LIDA DADIL QADAMLAR BILAN!



Besh yilga mo'ljallangan strategiyadagi vazifalar:

- Universitetning boshqaruv tizimini yanada takomillash-tirish, xalqaro ta'lim va tad-qiqot standartlarini rivojlan-tirish;
- yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirish;
- xalqaro ilmiy-texnikaviy bazalar va axborot-kommunikatsiya texnologi-yalarini rivojlantirish;
- o'quv jarayonini ilg'or xal-qaro modellar va tamoyillar asosida takomillashtirish;

- axborot-resurs ta'minoti va kommunikatsiya texnolo-giya bilan ta'minlanganlik sifati va darajasini oshirish;
- moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, professor-o'qi-tuvchilar va xodimlarni ijti-moiy va moddiy qo'llab-quv-vatlash;
- ta'lim va tadqiqotlar soha-sida xalqaro hamkorlik va ilmiy hamkorlikni rivojlanti-rish;
- professor-o'qituvchi va il-miy izlanuvchilarning kasbiy malakasi, ilmiy-tadqiqot ish-lari ko'lami va samaradorli-gini oshirish;

Qo'qon universiteti – "O'zbekiston 24" telekanali ob'jektivida

Qo'qon universiteti birinchi xususiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Bizda uchta komponent: professor-o'qituvchi – talaba – o'quv adabiyotlariga asosiy e'tibor beriladi. Bular ta'lim tizimida eng asosiy sifatni oshiradigan omillar hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish bilan bog'liq jarayonlar doimiy e'tiborimizda.


Xorijdagi eng nufuzli Skopus, Springer elektron

ma'lumotlar bazalari ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. O'qituvchi va talabalarga zarur barcha o'quv adabiyotlar keltirildi.

Bugungi talaba kechagi talaba emas, ularning talabi bor, ehtiyoji bor. O'z nomi bilan talaba – talab qiluvchi. Bizda talabalarga eng zamonaviy adabiyotlar asosida ta'lim berilyapti.

XALQARO HAMKORLIK

JANUBIY-URAL DAVLAT UNIVERSITETI – QO'QON UNIVERSITETINING ISTIQBOLLI HAMKORI



АЛЕКСАНДР ШЕСТАКОВ

РЕКТОР ЮРГУ



Qo'qon universiteti va Rossiya Federatsiyasining Janubiy-Ural Davlat universiteti o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Qo'qon universiteti rektori Sherzod Mustafakulov va YuUrGU rektori Aleksandr Shestakov o'rtasida o'tkazilgan onlayn uchrashuvda ham universitetlar o'rtasida ta'lim va ilmiy sohalardagi

hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Hamkorlik doirasida "Xorijiy fuqarolarga Rus tilini o'rgatish metodikasi" bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilmoqda. O'qishni muvaffaqiyatli bitirgan tinglovchilarga ushbu yo'nalish bo'yicha Rossiya Federatsiyasining bakalavr diplomi beriladi.



UNIVERSITETDA YANGI TIZIM



KPI – ish samaradorligining muhim ko'rsatkichi

Qo'qon universitetida KPI tizimi joriy etildi. KPI tizimi zamonaviy texnologiyalar va metodlar asosida mehnat unumdorligini oshirish, universitet faoliyati va imijini yanada rivojlantirish, munosib kadrlarni qo'llab-quvvatlash ishlarini takomillashtirish, professor-o'qituvchi va

xodimlarning kasbiy mahorati hamda raqobatbardoshligini oshirish, ularning dunyoqarashini xalqaro andozalar asosida kengaytirish, jamoada ilmiy va tashkiliy masalalar bo'yicha munosabatlarining samarali integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Tizim asosida universitet professor-o'qituvchi va xodimlari qo'shimcha moddiy rag'batlantiriladilar.

YARATUVCHANLIK VA INNOVATSIYA

Universitet o'qituvchilari yaratuvchilik ishlarida faol

Qo'qon universitetining biznes kafedrasida o'qituvchilari G'iyos Po'latov va Rustam Tohirovlar tomonidan yaratilgan avtomatlashtirilgan tizim Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari

universiteti akademik litseyi axborot resurs markazi faoliyatiga tatbiq etildi.

Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratgan ushbu dasturlari uchun universitet o'qituvchilari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining Guvohnomasiga ega bo'ldilar.



KATTA BIZNESGA KICHIK QADAMLAR BILAN!



Qo'qon universiteti – real sektor hamkorligi mustahkamlanmoqda

Universitetning real sektor ishtirokchilari – ish beruvchilar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va universitet bitiruvchilarining bandligiga ko'maklashish e'tibor markazida.

Qo'qon universiteti rektori Sherzod Mustafakulov va "Havoqand people" MChJ rahbari Ahmad Meliboyev

o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Innovation-korporativ hamkorlik to'g'risidagi ushbu shartnomada tadbirkorlik sub'yektida universitet talabalari amaliyotini tashkil etish, o'quv jarayoniga tashkilotning yetakchi mutaxassislarini jalb qilish, iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha seminar-trening va uchrashuvlar o'tkazish kabi maqsadlar aks etgan.

Universitet rektori va

Cambridge o'quv markazi asoschisi Jahongir Po'latov o'rtasida ham Innovation-korporativ hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.

Universitet va real sektor hamkorligi doirasida muvaffaqiyatli biznes egasi Ahmad Meliboyev ishtirokida "Katta biznesga kichik qadamlar bilan" mavzusida tashkil etilgan master-klassda universitet talabalari kechagi kundan bugungisi yaxshiroq o'tishi uchun tinimsiz harakat qilish, ham-

korlarni to'g'ri tanlash, kuchli jamoani shakllantirish, biznesni avtomatlashtirish, IT qurilmalari va sun'iy intellektdan unumli foydalanish yo'llari xususida muhim tavsiyalar oldilar.

Talabalar va Cambridge o'quv markazi asoschisi Jahongir Po'latov ishtirokidagi uchrashuv ham g'oyat qiziqarli o'tdi. Talabalar "Biznesni noldan boshlash" sirlari bilan tanishdilar.

PROFESSOR-O'QITUVCHI VA ILMIY XODIMLAR UCHUN MAXSUS "ISHBILARMONLIK INGLIZ TILI" KURSLARI TASHKIL ETILDI

Universitet rahbariyati tashabbusi bilan barcha o'qituvchi va xodimlarning til bilish darajasini oshirish, xalqaro ta'lim manbalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish maqsadida uch daraja (A, B, C level) ga bo'lingan o'quv kurslari faoliyati yo'lga qo'yildi. Darslar Qo'qon universiteti "Jahon tillari" kafedrasining tajribali o'qituvchilari tomonidan olib borilyapti.

Mashg'ulotlarda Vocabulary and Speaking, Reading, Grammar, Speaking,



Listeningga urg'u berilmoqda.

Ma'lumot o'rnida: Qo'qon universitetida 2021 yilning may oyida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga qadar universitet professor-o'qituvchi va xodimlarining ingliz tili bo'yicha bilimlari, xorijiy mehmonlar bilan erkin so'zlashish, muloqotga kirishish malaka va ko'nikmasini oshirish ko'zda tutilmoqda.

NOAKADEMIK HAYOT

Talabalarining kompyuter savodxonligini oshirishga e'tibor qaratilyapti



Universitet talabalari uchun "Kompyuter savodxonligi kursi" tashkil etilib, dasturiy ta'minot xususiyatlari va dasturlarni o'rnatish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Universitetning Ilmiy tadqiqot departamenti mutaxassislari tomonidan tashkillangan kursda talabalar office dasturlari (Word, Power Point, Exel), grafik dasturlar (Adobe Photoshop, Adobe Premiere) va boshqa dasturlarni katta qiziqish bilan tez va oson o'rganmoqdalar.

Aql gimnastikasi ishqibozlari "Rektor kubogi" uchun bellashdilar



Qo'qon universitetida shaxmat musobaqasi ikki kun qizg'in davom etdi. Ayniqsa, chempionatning final bosqichida ishtirokchilar ehtiyotkorlik bilan dona surib, mahoratlarini namoyish qilishga intildilar.

Musobaqa g'oliblari universitet rahbariyati tomonidan Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Mutlaq g'olib "Rektor kubogi"ga sazovor bo'ldi.

Talabalar turar joyida hayot qizg'in



"Zakovat" bilimdonlarni kashf etdi. Talabalar turar joyida qiziqarli tadbirlar, bellashuv va viktorinalar o'tkazib borilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag'ishlangan "Zakovat" intellektual o'yini universitetning eng bilimdon, eng aql-zakovatli talabalarini haqiqiy bellashuvga chorladi.

Intellektual o'yin mantiqiy,

siyosiy, huquqiy blits-savollar doirasida murosasiz kechdi. Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishining "Adolat navosi" jamoasi mutlaq g'olib bo'ldi.



"Speaking club"da talabalar mahorati oshmoqda

Qo'qon universiteti talabalar yoshlari darsdan so'ng turli to'garaklarda bilimlarini mustahkamlab, mahoratlarini oshirmoqdalar.

Irlandiyalik mutaxassis, Qo'qon universiteti Jahon tillari kafedrasida o'qituvchisi Kyle William tomonidan olib borilayotgan "Speaking club" to'garagi mashg'ulotlarida talabalar ingliz tilida erkin so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishyapti.

Talabalar turar joyida "Demak, ingliz tilini o'rganamiz" kursi ochildi

Talabalar turar joyida "Demak, ingliz tilini o'rganamiz"



miz" to'garak mashg'ulotlari tashkil etilib, talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlari mazmunli va unumli o'tmoqda.

Universitetning Talabalariga xizmat ko'rsatish departamenti boshlig'i Abbasxon Yusupov tomonidan interaktiv usulda o'tkazilayotgan mashg'ulotlar talabalarining til bilish darajasini oshiryapti.

Cyber-sport bo'yicha jamoalar shakllandi

Universitet talabalari o'rtasida aqliy va jismoniy sport o'yinlarini ommalashtirish, maqsadida o'tkazilgan musobaqada 10 ta jamoa shakllandi.



Barcha jamoalar ichida ustunlikka ega bo'lgan Iqtisodiyot yo'nalishining "Partizanlar" hamda Mehmoxona va turizmni boshqarish yo'nalishining "Serious" jamoalari finalga qadar yetib keldilar.

"Partizanlar" jamoasi 1-o'rinni, "Serious" jamoasi esa 2-o'rinni qo'lga kiritdi. G'olib jamoalar universitet rahbariyati tomonidan munosib tabriklandi.

YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH

Qo‘qon universitetida maktablar chet tili o‘qituvchilarining malakasi oshirildi



Qo‘qon shahridagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari chet tili o‘qituvchilari uchun “Chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuv” mavzusida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Innovatsion ta‘lim” kafedrasida va Qo‘qon universiteti “Jahon tillari” kafedrasining professor-o‘qituvchilari spikerligida uch kunlik seminar-trening o‘tkazildi.

Seminar-treningda xorijiy amaliy, akademik ingliz tili, chet tilini o‘qitishda amaliy innovatsion dasturlarni qo‘llash metodikasi, ingliz tilini o‘qitishning Irlandiya tajribasi, amaliy innovatsion psixologiyaning ta‘limdagi o‘rni, jamoada sog‘lom psixologik muhitni ta‘minlashga erishish yo‘llari xususida ko‘nikma shakllantiriladi.

FARMON VA IJRO

Qo‘qon universiteti bo‘ljak talabalar ta‘lim-tarbiyasiga maktabdan e‘tibor qaratmoqda

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi asnosida Qo‘qon universiteti shahrimizda joylashgan umumta‘lim maktablari bilan memorandumlar imzolab, o‘quvchilar, ya‘ni abituriyent – bo‘ljak talabalar ta‘lim-tarbiyasiga maktabdanoq e‘tibor qaratmoqda.

Qo‘qon universiteti tomonidan respublikaning tajribali psixolog-konsultantlari, mutaxassis-spikerlari taklif

etilib, shahar hokimligi va prokuraturasi bilan hamkorlikda hududdagi 42 ta umumta‘lim maktabi direktorlari, ularning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari va psixologlari uchun uch kun davomida seminar-trening tashkil etiladi, mahorat darslari o‘tkaziladi.

“Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” shiori ostida “Maktabda ta‘lim mazmuni hamda o‘qitish metodikasi” mavzusidagi treningda yangi avlod kadrlarini yetishtirishda amaliy yordam, ta‘limga zamonaviy yondashuv, enerjayer, stress-menejment, innovatsion strategiya va boshqa metodik ko‘nikmalar berildi.

TALABALAR KENGASHI RAISI SAYLANDI



Talabalar kengashi yetakchiligiga saylov shaffof o‘tdi. Saylovda universitetning eng faol, yetakchi 10 nafar talabasi teng sharoitda dasturlarining taqdimotini o‘tkazdilar. Komissiya a‘zolari yetakchilikka nomzodlarning chiqishlarini istiqboldagi maqsad va vazifalar, innovatsion tashabbus, talabalar uchun manfaatli rejalar, liderlik qobiliyati va taqdimot dizayni hamda talabalarning nom-

zodni qarsaklari bilan nechog‘lik qo‘llab-quvvatlashi kabi mezonlar bo‘yicha xolis baholab bordilar.

Barchaning hurmatiga sazovor bo‘lgan, o‘zida yetakchilik uchun zarur bilim, tajriba va qobiliyatni jamlagan menejment yo‘nalishi 2-kurs talabasi Timur Botirov eng yuqori ball to‘pladi va lider deb e‘tirof etildi. Unga “Talabalar Kengashi raisi” ishonch yorlig‘i topshirildi.

Maktablarni bitiruvchi-yoshlar Qo‘qon universitetiga katta qiziqish bildirmoqda

Qo‘qon universitetida yoshlarni oliy ta‘limga jalb qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va kelgusida ishga joylashishlariga ko‘maklashish maqsadida maktab – universitet – ish beruvchi muassasalar o‘rtasi-

dagi hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanmoqda.

Universitetning o‘rta ta‘lim maktablari bilan hamkorligi doirasida Buvayda tumandagi 49-maktabning bitiruvchi sinflar o‘quvchilari bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Maktab o‘quvchilari Qo‘qon universiteti faoliyati, besh yilga mo‘ljallangan istiqbolli strategiyasi, maqsad va vazifalari, talabalarining sifatli ta‘lim olishlari uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar va kelgusida universitet talabalari safidan o‘rin olish istagini bildirdilar.



TABRIKLAYMIZ!

Biznes va ta‘lim kafedrasida mudiri F. Mulyadinov ilmiy rahbarligida Qo‘qon universiteti xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi Vohidjon Pirmazarov respublika online fan olimpiadasi g‘olibi bo‘ldi.

Bosh muharrir
Sherzod MUSTAFAKULOV

Matn muharriri
Muxtasar Norbayeva

Sahifalovchi-dizayner
Oybek Raximberdiyev

Fotomuxbir
Usmon Ibragimov

📍 Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri,
Turkiston ko‘chasi, 28 A-uy

☎️ (+998) 91 142-83-66

📧 @press_ku